

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 8 Jild 4
2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулв Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

| | |
|---|-------|
| <i>Бегамова Насиба Холмурзаевна</i> МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА АГРАР СОҶА ХОДИМЛАРИНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РОЛИ (ЎЗБЕКИСТОН ЖАНУБИЙ ВИЛОЯТЛАРИ МИСОЛИДА) | 11-19 |
| <i>Насиратдинов Сапар Жеткербай-улы</i> ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРДА ФОТОГРАФИЯНИНГ ЎРНИ | 20-25 |
| <i>Нарманов Феруз Асфандиёрович</i> ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ ҲАЁТИ ВА ФАОЛИЯТИНИНГ ЎҚИТИЛИШИ | 26-30 |
| <i>Rustamov Ixomidin</i> “O‘ZBEKISTON - 2030” STRATEGIYASI – XALQ STRATEGIYASI (YANGI O‘ZBEKISTON TARIXI) | 31-34 |
| <i>Normo‘minov Aziz</i> O‘ZBEKISTONLIK SPORTCHILARINING PARAOLIMPIYAMUSOBAQALARIDAGI ISHTIROKI | 35-39 |
| <i>Turdiboyeva Gulmira</i> VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGIGA QARSHI KURASH BO‘YICHA TARG‘IBOTLAR SAMARASI | 40-44 |
| <i>Xamidova Shoiria Rasulovna</i> PARASPORT TURLARI VA ULARNING QONUNIYATLARI | 45-51 |
| <i>Ахмедов Жасурбек Зокиржонович</i> МАДАНИЯТШУНОСЛИК ВА НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДА | 52-54 |

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

| | |
|---|-------|
| <i>Raximov To‘xtabek Jumaboyevich</i> KICHIK BIZNES KORXONALARINING EKSPORT SALONIYATINI OSHIRISHGA TA‘SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI | 55-60 |
| <i>Allaberganov Xushnud Allaberganovich</i> TASHQI SAVDO SALONIYATINING MINTAQA IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI | 61-68 |
| <i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i> МЕЖДУНАРОДНЫЕ ТРАНСПОРТНЫЕ КОРИДОРЫ: СИНЕРГЕТИЧЕСКАЯ ВЫГОДА И ПОИСК РЕШЕНИЯ НЕПРОСТЫХ ЗАДАЧ | 69-81 |
| <i>Baqoeva Dilfuza</i> SANOAT KORXONALARIDA SOTUV TIZIMINING OLIB BORILISHI, MOHIYATI VA YO‘NALISHLARI | 82-86 |
| <i>Adilov Mirkomil Miralimovich</i> TIJORAT BANKLARI KREDIT QO‘YILMALARINING MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH | 87-93 |

Donayev Sheroli Burxonovich

DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RIVOJLANTIRISH ASCENT

STRATEGIYASINING AHAMIYATI 94-101

Kaxarov Jasur Abulqosimovich

ГАСТРОНОМИЯ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ

МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 102-109

Rahmonov Shuxrat Shavkatovich

ТУРИСТИК МАҲСУЛОТ ДИВЕРСИФИКАЦИЯСИНING НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ 110-117

Sherov Alisher Bakberganovich

OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI 118-129

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Tag'oyeva Dilnavoz Narziqulovna

МАНМУДХО'JA БЕЎБУДИЙ МА'РИФАТПАРВАРЛИК Г'ОЯЛАРИ ВА УЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ-

АХЛОҚИЙ МУНОСАБАТЛАРДАГИ КОНСТРУКТИВ МОҲИЯТИ 130-135

Muhamedov Asror

G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR 136-145

Aripova Zulfiyaxon Salijanovna

HOZIRGI ZAMONDA ETIKA VA ESTETIKANI O'QITISHNING AMALIYIJTIMOIY

AHAMIYATI 146-151

Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich

INSONNING TABIATGA NOOSFERAVIY MUNOSABATINI YUKSALTIRISH

ZARURIYATI 152-156

Xolmatov Uchqunjon Xamidullayevich

АХБОРИЙ-ПСИХОЛОГИК ВА МАДАНИЙ ТАҲДИДЛАР ШАРОИТИДА МИЛЛАТЛАРАРО ТУТУВЛИК

ВА НАМЎНАТИНИ ТА'МИНЛАШНИНГ ТА'ЛИМИЙ-ТАРБИЯВИЙ ВАЗИФАЛАРИ 157-162

Шоназаров Жамшид Шухратович

ЖАДИДЛАР ҲОЯЛАРИ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ БИЛАН ҲАМОҲАНГ 163-168

Ho'janova Tamara Jo'raevna

YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI AXBOROT URUSHI DAVRIDA MAFKURAVIY

TAJOVUZLARDAN ASRASH OMILLARI 169-174

Quchqorov Javlon Suyundik o'g'li

MILLIY G'OYA VA DEMOKRATIK O'ZGARISHLAR DIALEKTIKASIGA MADANIY HODISALAR

SIFATIDA QARASH 175-179

Muxtorova Tutixon

GLOBALASHUV JARAYONLARIGA FALSAFIY YONDASHUVLARNING O'ZIGA

XOS JIHATLARI 180-186

Rahmonova Mavluda Abdusamadovna

ABDURAUFIY FITRATNING "OILA" ASARIDA JAMIYAT MA'NAVIY-AXLOQIY RIVOJIGA DOIR

QARASHLARI TAHLILI 187-194

| | |
|--|---------|
| <i>Pirnazarov Nurnazar</i> TANA, RUX VA MA'NAVIYATNING INSON BORLIG'IDAGI AKS ETISHINING FALSAFIY TAHLILI..... | 195-201 |
| <i>Ismailov Dilshod Baxriddinovich</i> DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MA'NAVIY-AXLOQIY SEGMENTI:KOMPARATIV YONDASHUV | 202-209 |
| 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI | |
| <i>Yuldoshova Shaxnoza Azimboyevna</i> RAY BREDBERI VA ISAJON SULTON ASARLARIDA MA'RIFATPARVARLIK MOTIVLARI TALQINI | 210-216 |
| <i>Bozorbekov Ahmadbek</i> O'ZBEK TERMINOLOGIYASIDA TEXNIK, ZAMONAVIY LOGISTIKA SOHASIDAGI TERMINLARNING YASHALISH MODELLARI VA PARADIGMATIKASI | 217-230 |
| <i>Xamrayev Fozilbek Yo'ldoshevich</i> ZAMONAVIY O'ZLASHMALARNI MILLIYLASHTIRISHDA O'ZBEK TILINING TARIXIY ZAXIRA MANBALARIDAN FOYDALANISH | 231-236 |
| <i>O'tebaeva Dilbar</i> TURKIY TILLARGA UMUMIY BO'LGAN EKOLOGIK ATAMALAR | 237-242 |
| <i>Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna</i> EPIK KLISHELAR HAMDA ULARNING INGLIZ VA NEMIS TILLARIDAGI TALQINI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA) | 243-247 |
| <i>Kadirova Zaynab Bakoyevna</i> INGLIZ TILIDAGI REKLAMANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI | 248-252 |
| <i>Allaberganova Nilufar Matnazar qizi</i> QOFIYA ASOSLARIDAGI MATNLARNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI | 253-256 |
| <i>Nabiyeva Rushana Jamol qizi</i> OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI NOMLARI LEKSIK-SEMANTIK GURUHINING MA'NOVIY GURUHLARI VA ULARDA YANGI O'ZLASHMALARNING ISHTIROKI HAQIDA | 257-262 |
| <i>To'rayeva Iroda Sheramatovna</i> FOLKLORIZMLAR TIZIMIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMLARNING O'RNI VA SPETSIFIKASI | 263-268 |
| <i>Qodirova Munisa Erkinjon qizi</i> BADIIY MATNDA QO'LLANILGAN SAN'ATGA OID TERMINLARNING LEKSIK TIPOLOGIYASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) | 269-272 |
| <i>G'aniyeva Nozanin G'ayratovna</i> MARKAZIY OSIYODA JADID AYOLLARINING PATRIARXAL TUZILMALAR VA MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI CHIDAMLILIGI VA QARSHILIGI | 273-277 |
| <i>Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna</i> TURKIY ADABIYOTDA "IBROHIMI ADHAM" QISSALARI TAHLILI | 278-284 |
| <i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> ALISHER NAVOIYNING "ARBA'IN" ASARIDAGI HADISLAR BAYONIDA G'OYAVIY-BADIIY IFODA MUKAMMALLIGI | 285-292 |
| <i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> O'ZBEK JADID ADABIYOTIDA OVRUPO MADANIYATI TALQINI | 293-298 |

12.00.00 – YURIDIK FANLAR*Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna*

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI HUQUQIY TIZIMLARIDA KODEKSLASHTIRISH

JARAYONINING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI 299-306

Узакова Гўзал Шариповна

ШАҲАРЛАР ВА БОШҚА АҲОЛИ ПУНКТЛАРИДА АТРОФ МУҲИТНИ МУҲОФАЗА

ҚИЛИШНИНГ ЭКОЛОГИК-ҲУҚУҚИЙ ТАЛАБЛАРИ 307-325

Пулатова Нодирахон Собиржонова

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ УСТРАНЕНИЯ СУДЕБНЫХ ОШИБОК В ОБЕСПЕЧЕНИИ

ПРАВ ЧЕЛОВЕКА 326-332

Nizamatdinov Kayrat Keunimjaevich

MOBIL ALOQA XIZMATI KO'RSATISHDA MILLIY ALOQA OPERATORLARINING FAOLIYATINI

HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH 333-341

Абдурахманова Нодирахон

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В

ОНЛАЙН АРБИТРАЖАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ 342-345

Vokiyev Jahongir Nurmatjon o'g'li

TA'LIM OLIH HUQUQINING GENEZISI HAMDA UNING YURIDIK TABIATI

346-356

Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li

SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI HUQUQINI TA'MINLASH MASALALARI

357-368

Утанов Фурқат

ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ТОВАР БЕЛГИСИНИНГ ҲУҚУҚИЙ

МАҚОМИ 369-374

Dilboboyev Nozimbek Shavkat o'g'li

XALQARO VA MILLIY DARAJADA INVESTITYA QONUNCHILIGINING RIVOJLANISH

TENDENSIYASI 375-381

Назарова Марҳабо

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА И РАЗВИТИЕ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В

УЗБЕКИСТАНЕ 382-386

Абулхайров Рустамхон Ибодуллаевич

ПОРТЛАШ СОДИР БЎЛГАН ЖОЙНИ КЎЗДАН КЕЧИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ЎТКАЗИШ

МАСАЛАЛАРИ 387-400

Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи

ВОПРОСЫ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ БЫВШИХ ОСУЖДЕННЫХ В НЕКОТОРЫХ

МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТАХ..... 401-406

Abdikhakimov Islombek

LEGAL RELATIONS AND STAKEHOLDERS IN QUANTUM TECHNOLOGIES REGULATION: A

COMPREHENSIVE ANALYSIS OF GOVERNANCE FRAMEWORKS 407-412

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI*Djabbarova Nilufar Baxtiyarovna*

TALABA-QIZLARDA LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FALSAFIYPEDAGOGIK

YONDASHUVLARNING ROLI 413-417

| | |
|--|---------|
| <i>Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich</i> BO'LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI ADABIY ASARLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA DEBYUT MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI | 418-423 |
| <i>Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna</i> HOFIZ XORAZMIY DIDAKTIK QARASHLARINI O'RGANISHNING HOZIRGI HOLATI | 424-429 |
| <i>Ismoilova Shodiyaxon Xusanboy qizi</i> NEMIS TILIDAN KEYIN INGLIZ TILI O'RGANISH JARAYONIDA FONETIK INTERFERENSIYANI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR | 430-435 |
| <i>Salimov Ma'ruf Eshdovlat o'g'li</i> O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI | 436-439 |
| <i>Палванова Умида Бахрамовна, Тургунов Собитхон Ташпулатович, Якубова Азада Ботировна</i> ОРГАНИЗАЦИЯ И УПРАВЛЕНИЕ ОБУЧЕНИЕМ СТУДЕНТОВ НАВЫКАМ ОКАЗАНИЯ ПЕРВОЙ ПОМОЩИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА | 440-444 |
| <i>Rasulova Fotima Farxotovna</i> O'QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA YO'NALTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY YO'NALISHLARINING ILMIY TAHLILI..... | 445-450 |
| <i>Saidxo'jayev Muhammadxo'ja Ma'rufxo'ja o'g'li</i> YOSHLARNI MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYALASHDA IJTIMOY - PEDAGOGIK OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI..... | 451-456 |
| <i>Utepbergenov Aydos Janabayevich</i> SAHNA NUTQI O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI | 457-461 |
| <i>Nozima Muqimovna Hamdamova</i> MAJBURIY FANLARDAN TALABLARNING KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLARIDAN FOYDALANISH..... | 462-467 |

Received: 30 July 2024
Accepted: 5 August 2024
Published: 15 August 2024

Article / Original Paper

EDUCATIONAL TASKS OF ENSURING INTERNATIONAL HARMONY AND SOLIDARITY IN THE CONDITIONS OF INFORMATION, PSYCHOLOGICAL AND CULTURAL THREAT

Kholmatov Uchkunjon Khamidullaevich

Researcher at Fergana State University

e-mail: alfargoniy.uz@gmail.com

Abstract. This article analyzes the educational and educational tasks of ensuring interethnic harmony and solidarity in the conditions of informational, psychological and cultural threats. Also, in the conditions of informational, psychological and cultural threats, the manifestations of threats aimed at destroying inter-ethnic harmony and solidarity and turning stability into instability are scientifically based.

Key words: information, information-cultural threats, information-religious threats, information-psychological threats, secularism, international harmony, digital transformation, information inequality, manipulation of consciousness, information extremism, information crime.

AXBORIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY TAHDIDLAR SHAROITIDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA HAMJIHATLIKNI TA'MINLASHNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY VAZIFALARI

Xolmatov Uchqunjon Xamidullayevich

Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada axboriy-psixologik va madaniy tahdidlar sharoitida millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashning ta'limiy-tarbiyaviy vazifalari tahlil qilingan. Shuningdek, axboriy-psixologik va madaniy tahdidlar sharoitida millatlararo totuvlik va hamjihatlikni parchalashni ko'zlovchi, barqarorlikni beqarorlikka aylantiruvchi tahdidlarning ko'rinishlari ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: axborot, axboriy-madaniy tahdidlar, axboriy-diniy tahdidlar, axboriy-psixologik tahdidlar, sekulyarizm, millatlararo totuvlik, raqamli transformatsiyalashuv, axborot tengsizligi, ong manipulyatsiyasi, axborot ekstremizmi, axborot jinoyati.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I8Y2024N22>

Kirish. Bugungi kunda millatlararo totuvlik va hamjihatlikka rahna soluvchi tajovuzlarning quyidagi ko'rinishlari ko'zga tashlanmoqda: milliy qadriyatlarni kamsitish, milliy axloq qoidalarini inkor qilish, mo'tadil qarashlarni pisand qilmaslik va bularning o'rniga muayyan mafkuraviy markaz yo'rig'iga yurish, kosmopolit qoidalarni maqtash, yot va begona g'oyalarni, dunyoqarashni mutlaq haqiqat sifatida targ'ib qilish. Diqqat qilinsa, ijtimoiy ongda zararli maqsad-muddalarni, tuyg'u va fikr-mulohazalarni hosil qilish millatlararo nizolar negizini tashkil qiladi.

Axboriy-psixologik va madaniy tahdidlar sharoitida millatlararo totuvlik va hamjihatlikni parchalashni ko'zlovchi, barqarorlikni beqarorlikka aylantiruvchi tahdidlarning

quyidagi ko‘rinishlari namoyon bo‘lmoqda: axloqiy buzuqlik, zo‘ravonlik, egotsentrizm, individualizm, «ommaviy madaniyat», milliy davlatning taraqqiyot modeliga ishonchsizlik uyg‘otish, milliy nizolar keltirib chiqarishga urinish, iqtisodiy tanglik joriy qilish, qo‘shni davlatlarni bir-biriga qayrash, yoshlar ongini zaharlash. Bundan ko‘zlangan maqsad rivojlanayotgan davlatning moddiy va ma‘naviy boyliklariga egalik qilishdir. Chunki g‘oyaviy tahdidlar oxir-oqibatda davlatni inqirozga olib keladi, nega deganda, buning natijasida fuqarolarda xudbinlik, loqaydlik, manfaatparastlik, hasad, sotqinlik, irodasizlik, beparvolik kabi ijtimoiy-axloqiy illatlar kelib chiqadi[1].

Materiallar va metodlar. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta‘minlashning asosan ikki yo‘nalishda – ta‘lim-tarbiya va targ‘ibot-tashviqot yo‘nalishida olib borilmoqda.

1. Ta‘lim yo‘nalishi. “Ta‘lim” arabcha «o‘rgatish, o‘qitish, ilm berish, ma‘lumot», degan so‘zlardan olingan bo‘lib, 1) bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi; 2) ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari bo‘yicha egallanadigan, olinadigan ma‘lumot va ko‘nikmalar majmui; 3) tarbiya, odob-axloq; 4) ko‘rsatma, yo‘l-yo‘riq, o‘rgatuv, degan ma‘nolarni ifodalash uchun ishlatiladi [2]. Shunga ko‘ra, jahonda kechayotgan millatlararo nizolar haqida insonlarga bilim berish asosida ularning qalbi va ongiga totuvlik va hamjihatlik ko‘nikmalarini singdirishga qaratilgan jarayonga aytiladi.

Hozirgi davrning shiddatli ta‘siri chinakam ma‘naviyatli va ma‘rifatli odamgina inson qadrini bilish, o‘z milliy qadriyatlarini, milliy mafkurasini aniqlashi, erkin va obod jamiyatda yashashi, davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun fidoiylik bilan kurasha olish mumkin shu o‘rinda ta‘kidlash kerakki, o‘z xalqining o‘miishi bilan bir qatorda boshqa xalqlar tarixini hurmat qilish, qadrlash ham o‘z mafkurasini anglash bilan bog‘liq, chunki o‘zlikni anglash tor ma‘nodagi tushuncha emas. Biz o‘zimizni hamisha mustaqil millat - o‘zbek xalqi sifatida xis etib kelganmiz va shu bilan faxrlanamiz. Darhaqiqat, o‘zligini anglay olgan millat yoshlari ikkinchi bir millatni mafkurasini hurmat qiladi[3].

Axboriy-psixologik va madaniy tahdidlarga qarshi kurashda tarbiya omilini ham unutmazlik joiz. “Tarbiya” arabcha rivojlantirish, parvarish qilish, o‘stirish, o‘rgatish, ilm berish, degan so‘zlardan olingan bo‘lib; 1) insonlarga ta‘lim, odob-axloq va shu kabilarni o‘rgatib, singdirib, ularni voyaga yetkazish, ulg‘aytirish, o‘stirish; 2) insonlarning kasb-hunar, mehnatga bo‘lgan munosabatini shakllantirishga, rivojlantirishga, uning jamiyatda yashashi uchun kerak bo‘lgan xislatlarga ega bo‘lishini ta‘minlashga qaratilgan ish-amallar majmui va shu yo‘l bilan singdirilgan odob-axloq, xislat, fazilatlar kabilarnnng o‘zini anglatish uchun ishlatiladi[4].

Aynan ta‘lim-tarbiya va ma‘rifat jamiyat barqarorligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni exgulikka da‘vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo‘lishga undaydi. Shuning uchun uzluksiz ta‘lim tizimida ma‘naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish talab etiladi. Tarbiyada tanaffus bo‘lmasligi kerak. Tarbiya nafaqat ta‘lim tizimida, balki oilada, mahallarda ham yo‘lga qo‘yilishi kerak. Zero, «milliy ma‘naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘rni beqiёsdир.... Xususan, biz uchun nihoyatda dolzarb bo‘lgan tarix fani ham bundan mustasno emas. Milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta‘siri бўлмайди.... Vatanimiz hududida mavjud bo‘lgan har bir davlatchilik tuzumi, har qanday ijtimoiy jarayon – u g‘alaba yoki mag‘lubiyat bo‘ladimi, yuksalish yoki tanazzul bo‘ladimi – barcha-barchasi xalqimiz bosib o‘tgan murakkab tarixiy yo‘lning uzviy va ajralmas qismidir. Shuning uchun ham biz tariximizning barcha bosqichlarini

yaxlit holda qabul qilib, har tomonlama chuqur o'rganishimiz zarur... O'tmishdagi yutuq va g'alabalardan kuch-quvvat olib, xato va mag'lubiyatlardan xulosa va saboq chiqarib yashaydigan xalq o'zining taraqqiyot yo'li va kelajagini to'g'ri belgilay oladi» [5]. Shunga ko'ra, g'oyaviy tarbiyalash deb, ularning ongi va tafakkuri tizimida shu yo'nalishdagi dunyoqarashni, falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy va boshqa tamoyillarni muayyan mafkura asosida maqsadli shakllantirish jarayoniga aytiladi. Mafkuraviy tarbiya esa inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g'oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo'naltirilgan jarayondir. Ular bir-biridan ajralmas kislardir. G'oyaviy tarbiya mafkuraviy tarbiya orqali zohir bo'ladi[6].

Ta'lim-tarbiya usulida o'qitishda ko'rgazmalilik, uzluksizlik, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, tarixiy-mantiqiy izchillikni ta'minlash usullaridan keng foydalaniladi.

“Targ'ibot” arabcha «targ'ib – hohishni, qiziqtirishni kuchaytirish; rag'batlantirish» degan so'zdan olingan bo'lib 1) chuqur tushuntirish yo'li bilan biror g'oya, ta'limotni va shu kabilarni yoymoq, kishilarning ongiga singdirmoq; 2) tushuntirish yo'li bilan biror ishga chaqirmoq, da'vat etmoq degan ma'nolarni ifodalash uchun ishlatiladi[7]. Shunga ko'ra, g'oyaviy targ'ibot deb milliy yuksalish g'oyasini barcha aholi qatlamlarining orasida yoyishga, ular ongiga singdirishga qaratilgan ishlar, targ'ib ishlariga aytiladi.

“Tashviqot” arabcha «tashviq – qiziqish, hohishni kuchaytirish» so'zidan olingan bo'lib, «biror narsaga yo'llash, yo'naltirish, chaqirish maqsadidagi gap-so'z, hatti-harakat, undamoq, da'vat qilmoq», degan ma'nolarni ifodalash uchun ishlatiladi[8]. Shunga ko'ra, ya'ni g'oyaviy tashviqot deb ommaga mafkuraviy yoki boshqa jihatdan ta'sir ko'rsatish maqsadida yozma va og'zaki ravishda qilinadigan ishlar, tadbirlarga aytiladi.

Targ'ibot-tashviqot ishlari keng qamrovlilik, maqsadga yo'naltirilganlik, ishonchlilik, asoslanganlik, ilmiylik asosida olib boriladi[9].

Muhokama va natija. Axboriy-psixologik va madaniy tahdidlarga qarshi kurashish omillari sirasiga targ'ibot-tashviqot ishlaridan tashqari axborot xavfsizligi masalasi ham kiradi. Informatsion tahdidlar insonning ijtimoiy ongini noto'g'ri shakllantirish va shu tariqa o'zligiga ega bo'lmagan olomni tarkib toptirishni ko'zlaydi. Bugungi kunda informatsion tahdidlar asosan Internet vositasida chetdan turib uyushtirilmogda va uning asosiy ko'rinishlari quyidagilardir: davlatning milliy siyosatini atayin tanqid qilish, soxta xabarlar tarqatish, kichik muammoni katta (yirik) muammo sifatida tasvirlash, muxoliflarni gij-gijlash, rahbarlarni zolim qilib ko'rsatish, milliy qadriyatlarni noto'g'ri talqin qilish, yoshlarni chalg'itish. Informatsion tahdidlar – ba'zida axborot xuruji deb ataladi – shaxsni ikkilantiradi, uni muammolar girdobiga tashlaydi. Natijada fuqarolarning ijtimoiy ongi zaharlanib, jamiyatda ijtimoiy xastalik vujudga keladi[10].

Masalaning jiddiyligi shundaki, kompyuter viruslari bilan bir qatorda insoniyatning sof madaniyati, ma'rifati, odob-ahloqi uchun butunlay zid bo'lgan “ma'naviy-ahloqiy” viruslarni ham “xaker”lar orqali yoshlar ongiga uzatmogda. Bunday g'oyaviy mafkuraviy viruslarni tarqatuvchi “xakerlar” to'g'ridan-to'g'ri inson ongini, inson qalbini, o'zligini izdan chiqarishga yo'naltirilgan. Maqsad – yoshlarni ruxiy ma'naviy qashshoq qilish, mafkuraviy imunitetni yo'qqa chiqarish, intellektual salohiyatini yo'qqa chiqarish, shaxsni shaxs sifatida rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik, buning zamirida odamlar, xalqlar, millatlar o'rtasidagi ezgulik insoniylik va o'zaro do'stlik, qardoshlik munosabatlari o'rniga yovuzlik, o'zaro dushmanlik urug'larini sepishdan iborat[11].

Bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar fanlarning muhim vazifalaridan biri axboriy-psixologik va madaniy tahdidlarga munosib javob berishdir. Bu borada quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarur:

Axboriy-madaniy ta'sirlarning turli jihatlari, ularning milliy qadriyatlar va an'analarni shakllantirishdagi o'rnini targ'ib qilish; dunyodagi mafkuralarning o'zaro ta'siri va raqobatini o'rganish, monitoring o'tkazish; umuminsoniy va mintaqaviy muammolarni aniqlash va hal etishga ko'maklashish; O'zbekistonda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash yo'llarini ishlab chiqish; yoshlarni tarbiyalash jarayonlarini kuchaytirish maqsadida tegishli tashkiliy tuzilmalar va yoshlar birlashmalarini tashkil etish.

Milliy g'oyani shakllantirish uchun bolalar va o'smirlar uchun yangi o'quv-metodik, ilmiy-ommabop va badiiy adabiyotlar yaratish hamda joriy etish muhim ahamiyatga ega. Mavjud adabiyotlarni har tomonlama ekspertizadan o'tkazib, xalqning boy ijtimoiy-madaniy va tarixiy tajribasiga, progressiv an'analari va urf-odatlariga, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan darsliklar, o'quv qo'llanmalari va badiiy adabiyotlar nashr etishga erishish lozim.

Axboriy-psixologik va madaniy tahdidlarga qarshi kurashda avvalo mafkuraviy profilaktikani samarali amalga oshirish tizimini yaratish lozim.

Mafkuraviy profilaktika g'oyaviy bo'shliqni bartaraf etish, mafkuraviy parokandalikni oldini olish yoki biror-bir hudud, qatlam, guruhni yot va zararli g'oyalar ta'siridan xalos qilish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda g'oyaviy ta'sirning xilma-xil usul va yo'llaridan foydalaniladi, turli vositalar qo'llaniladi[12].

Mafkuraviy profilaktika tezkor va qisqa sur'atlarda yoki asta-sekin, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mumkin. Birinchi holatda zudlik bilan chora-tadbirlar qo'llash lozim bo'lsa, ikkinchisida, doimiy va sobit qadamlik bilan ish olib borish ko'proq natija beradi. Mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda ma'naviy ta'lim-tarbiya tizimiga tayangan mafkuraviy profilaktikaning o'ri katta. Zero, u mohiyatan, yot g'oyalarning kirib kelishining oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan chora-tadbirlarga tayanadi. Ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqot tizimi Mafkuraviy profilaktikani amalga oshirishga yordam beradi. Sog'lom mafkurani xalq qalbi va ongiga singdirishga xizmat qiladigan ijtimoiy tuzilmalar, oila, maktab, mahalla, davlat va jamoat tashkilotlari ham unda o'z o'rniga ega. Shuningdek, Vatan, xalq manfaatlarini, do'stlik va birodarlikni, o'zaro hurmat va bag'rikenglikni targ'ib-tashviq etuvchi ertaklaru dostonlar, qo'shiqlaru raqslar, turli ko'rinish va mazmundagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar Mafkuraviy profilaktikani amalga oshirish shakllaridir[13]. Demak xozirgi kunda jamiyatimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biri turli xildagi mafkuraviy, ma'naviy va axborot tahdidlariga qarshi kurashishning samarali yo'llari, usullari va vositalarini yaratish orqali yoshlarimizda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashdan iboratdir.

O'zbekistonda axboriy-psixologik va madaniy tahdidlarga qarshi kurashish tizimida ma'rifat targ'ibotini tashkil etish muhim omillardan biri hisoblanadi. Ma'rifat targ'ibotini yo'lga qo'yishdan asosiy maqsad yoshlarning ma'naviy-g'oyaviy saviyasini oshirishdir. Bunga yoshlarni zamonaviy bilimlar, fan va texnika yutuqlari bilan tanishtirish orqali erishiladi. Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy hayotda sodir bo'layotgan o'zgarishlar va dunyoda yuz berayotgan yangiliklar haqida ma'lumot berish ham muhim ahamiyatga ega. Ma'rifat targ'iboti yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, ularni zamonaviy tendensiyalar va innovatsiyalardan xabardor qilish imkonini beradi. Bu jarayon yoshlarni nafaqat bilim olishga, balki olgan bilimlarini

amaliyotda qo'llashga ham undaydi. Bunday yondashuv yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish bilan birga, ularning jamiyatda faol ishtirok etishiga ham ko'maklashadi.

Har qanday jamiyatda axboriy-psixologik va madaniy tahdidlarga qarshi kurashning eng samarali usuli bu xalq bilan muloqotdir. Ijtimoiy munosabatlar, aslida, odamniig siyosiy munosabatlaridan tortib, uning shaxslararo munosabatlari xususiyatlarini o'z ichiga olgan murakkab jarayondir. Bu jarayonni turli nazariy oqim vakillari o'zlaricha o'rganishlari ma'lum. Masalan, interksionizm vakillari uni shaxslararo o'zaro ta'sirning turlicha namoyon bo'lishi shaklida tushunsalar, ijtimoiy almashinuv nazariyasi tarafdorlari odamlarning bir-birlariga nisbatan talablari, kutishlari va manfaatdorliklarining o'zaro almashinuvi jarayoni sifatida tasavvur qiladilar. Shunga o'xshash hozirda turli-tuman yondashuvlar mavjud, lekin ularning barchasini birlashtiradigan yagona g'oya – bu odamlar o'rtasida sodir bo'ladigan o'zaro ta'sir va aloqa jarayonlarining mexanizmlarini aniqlash va ushbu jarayonni boshqarish usullarining taktika va strategiyasini ishlab chikishdir.

Har qanday jamiyatda axboriy-psixologik va madaniy tahdidlarga qarshi kurashning eng samarali usuli bu xalq bilan muloqotdir. Ijtimoiy munosabatlar, aslida, odamniig siyosiy munosabatlaridan tortib, uning shaxslararo munosabatlari xususiyatlarini o'z ichiga olgan murakkab jarayondir. Bu jarayonni turli nazariy oqim vakillari o'zlaricha o'rganishlari ma'lum. Masalan, interksionizm vakillari uni shaxslararo o'zaro ta'sirning turlicha namoyon bo'lishi shaklida tushunsalar, ijtimoiy almashinuv nazariyasi tarafdorlari odamlarning bir-birlariga nisbatan talablari, kutishlari va manfaatdorliklarining o'zaro almashinuvi jarayoni sifatida tasavvur qiladilar. Shunga o'xshash hozirda turli-tuman yondashuvlar mavjud, lekin ularning barchasini birlashtiradigan yagona g'oya – bu odamlar o'rtasida sodir bo'ladigan o'zaro ta'sir va aloqa jarayonlarining mexanizmlarini aniqlash va ushbu jarayonni boshqarish usullarining taktika va strategiyasini ishlab chikishdir.

Xulosa qilganda, hozirgi kunda milliy ma'naviyatimizga yo'naltirilgan ichki va tashqi tahdidlar inson va jamiyat hayotiga, mamlakatimiz rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Turli mafkuralar o'rtasidagi kurash keskinlashayotgan bir paytda, g'oyaviy kurash usullarini qo'llash har qachongidan ham muhimroq ahamiyat kasb etmoqda. Bu kurashda fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan javob berish zarur. Bunday yondashuv orqali milliy ma'naviyatimizni asrash, jamiyatimiz barqarorligini ta'minlash va mamlakatimiz taraqqiyotini izchil davom ettirish mumkin. Shu sababli, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni kuchaytirish, aholining, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. “Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani bo'yicha ma'ruza matni. – Termiz, 2016. – B. 90.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. J. 4. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – B. 27-28.
3. Qudratov A. Globallashuv jarayonida milliy qadriyatlar va mafkura // “Globallashuv sharoitida tinchlik va barqarorlikka tahdid soluvchi g'oyaviy, mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi kurashishning zamonaviy usullarini yaratish” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. – Toshkent, 2019. – B. 120.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. J.Z. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 678.

5. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 288.
6. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya – taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: Fan, 2017. – B. 383.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006. – B. 6.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006. – B. 21.
9. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya – taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: Fan, 2017. – B. 384.
10. Jo'rayev T. Milliy davlatchilik va xavfsizlik. –Toshkent: Akademiya. 2007.– B. 113.
11. Jo'raq'ziyev B. Global internet tarmog'i yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatuvchi vosita sifatida // Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=5.016). Volume 3 | ISSUE 4 | 2022. – R. 1341.
12. Eshmurodov A. Yuksak ma'naviyatli avlod – xavfsizlik va barqarorlik omili sifatida // “Globallashuv sharoitida vatanparvarlik tarbiyasining ma'naviy-ma'rifiy texnologiyalari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to'plami. – Toshkent, 2019 yil, yanvar. – B. 405.
13. “Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani bo'yicha ma'ruza matni. – Termiz, 2016. – B. 92.
14. Valeyev A.X. Borba s proyavleniyem ekstremizma v seti Internet // Biznes v zakone. 2011yu № 6yu Syu 125yu GKDJ reyzeji..sniukdutshtlfyukg.fkeshsdu.t.iuqkif-izkufmdutshu-uliyekushyaf- m-iuyesh-shteuktuye (data obrashyeniya] 24yu03yu2018).
15. Kubyakin E.O., Safronov A.N. Informatsionniy ekstremizm v srede molodyoji kak destruktivniy fenomen sovremennogo rossiyskogo obshchestva // Vestnik Krasnodarskogo universiteta MVD Rossii. 2013. №4(22). URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=21220235> (data obrashyeniya: 24.03.2018).
16. Xodjayeva D. Ma'naviy tahdid: uning mohiyati, ko'rinishlari va ularga qarshi kurashning zarurati.// “Globallashuv sharoitida vatanparvarlik tarbiyasining ma'naviy-ma'rifiy texnologiyalari”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari// O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi. – Toshkent, 2019. – B. 467- 482 b

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).